



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil “24” oktabr

BUYRUQ № 43

Toshkent sh.

**“Mehnat unumdorligini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarini shakllantirish tizimini xalqaro statistika amaliyotidan kelib chiqib yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Mehnat unumdorligini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Davlat statistika qo‘mitasining 2019- yil 28- fevraldagi “Mehnat unumdorligini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” ni tasdiqlash to‘g‘risida 9-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov